Аннотация: В статье проведён глубокий анализ институциональных и экономических основ системы налогообложения доходов физических лиц. В рамках темы рассматривается роль данного вида налога в устойчивом управлении государственными финансами, в справедливом распределении доходов и стимулировании экономической активности. В исследовании проанализированы различные налоговые системы, применяемые в международной практике, и их показатели эффективности, а также обоснованы действующие механизмы в условиях Узбекистана и пути их совершенствования. В частности, раскрыта суть прогрессивного, пропорционального и косвенного налогообложения, значение налоговых льгот и цифрового администрирования. В заключении статьи представлены научно обоснованные предложения и выводы, направленные на совершенствование налогообложения доходов физических лиц.

Ключевые слова: физические лица, подоходный налог, прогрессивная шкала, пропорциональный налог, налоговая политика, институциональные основы, экономическая справедливость, налоговые льготы, налоговое администрирование, распределение доходов.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy munosabatlarning liberallashuvi, soliq siyosatida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda fiskal tartibotning takomillashuvi sharoitida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi davlat moliyasini barqaror boshqarishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat byudjeti tushumlarining salmoqli qismini tashkil etib, ijtimoiy soha xarajatlarini qoplash, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va aholi farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu soliq turining adolatli, shaffof va samarali tashkil etilishi davlat hamda fuqaro o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqqa oid munosabatlarning institutsional va iqtisodiy asoslari tubdan o'zgarib bormoqda. Soliq tizimining soddalashtirilishi, soliq imtiyozlari va progressiv soliq stavkalarining qayta ko'rib chiqilishi, shuningdek, soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi



fuqarolarning soliqqa bo'lgan munosabatini tubdan yaxshilamoqda. Mazkur maqolada jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil etilib, O'zbekistonda amalda qo'llanilayotgan tizim holati hamda uni takomillashtirish yo'nalishlari o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar bo'yicha ilmiy yondashuvlar iqtisodiyot va moliya sohalarida yetakchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, amerikalik iqtisodchi Martin Feldshteyn soliq stavkalarining yuqoriligi investitsion faollikni susaytirishini ta'kidlab, soliq stavkalarini pasaytirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va aholi daromadlarini oshirish mumkinligini asoslab bergan. Uning fikricha, daromad solig'i siyosati iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda hal qiluvchi omil bo'lib, soliqqa tortish mexanizmi imkon qadar soddalashtirilishi lozim.

Ushbu yondashuvni Emmanuel Saez ham qo'llab-quvvatlab, daromadlar tengsizligini kamaytirish hamda iqtisodiy faollikni oshirish uchun progressiv soliqqa tortish zarurligini ta'kidlaydi. Jeyms Poterba esa samarali soliq tizimi nafaqat davlat daromadlarini shakllantirishga, balki iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga ham xizmat qilishi lozimligini alohida e'tirof etadi. Shu nuqtai nazardan, soliqqa tortish tizimi adolatli, shaffof va soddaligi bilan ajralib turishi muhimdir.

Tomas Piketti esa jismoniy shaxslarning daromadlariga qo'llaniladigan soliqlar orqali ijtimoiy adolat va iqtisodiy tenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi. U meros soliqlari orqali boyliklar konsentratsiyasini cheklash hamda resurslarni teng taqsimlash tarafdori sifatida tanilgan.

Mahalliy olimlardan Bozorov A., Qiyosov Sh. va Imamova M. kabi iqtisodchilar O'zbekiston sharoitida soliq ma'murchiligini soddalashtirish, soliq yukini adolatli taqsimlash va deklaratsiya tizimi orqali shaffoflikni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydilar.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining muvaffaqiyati, eng avvalo, soliq siyosatining adolatligi, soddaligi, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish darajasi va ijtimoiy himoya tamoyillarini o'zaro uyg'unlashtirish qobiliyatiga bog'liqdir. Turli mualliflar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar mavjud soliq tizimini chuqur isloh qilishda mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlarni undirish – davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, jamiyat manfaatlarini yo'lida uning asosiy funksiyalarini bajarishning muhim vositasidir.

Daromad va boylikni taqsimlash – ijtimoiy adolat hamda iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ko'plab soliq tizimlarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan soliqlarni undirish esa ushbu maqsadga erishish yo'lida qo'llaniladigan asosiy vositalardan biri sanaladi.

Adolat va samaradorlik tamoyillariga asoslangan puxta ishlab chiqilgan soliq siyosati resurslarni yanada teng taqsimlash, jamiyatning barcha a'zolariga asosiy xizmatlar va imkoniyatlardan teng foydalanish imkonini yaratish orqali barqaror va inkluziv ijtimoiy tuzum shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini rag'batlantirish yoki cheklash vositasi sifatida ham ishlatilishi mumkin. Masalan, daromad solig'i stavkalarining pasaytirilishi investitsiyalar hajmini oshirishi va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishi mumkin. Aksincha, stavkalarining ortishi iste'mol va investitsiya faoliyatini susaytirishga olib kelishi ehtimoldan xoli emas (1-rasm).



1-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq undirishning muhim jihatlari



Jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq undirish orqali iqtisodiyotni tartibga solishning bir qator muhim jihatlari mavjud:

1. Davlat byudjetini moliyalashtirish. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalaridan biridir.

2. Daromad va boylikning adolatli taqsimlanishi. Soliqlar davlatga ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida daromatlarni qayta taqsimlash imkonini beradi. Progressiv soliqqa tortish, ya'ni daromadning oshishi bilan soliq stavkalari ham oshib borishi, bu jarayonni osonlashtiradi.

3. Rag'batlantiruvchi yoki ogohlantiruvchi ta'sir choralari. Soliqlar orqali fuqarolarning iqtisodiy xatti-harakatlariga ta'sir qilish mumkin. Masalan, iqtisodiy o'sishni va innovatsiyalarni rag'batlantiradigan ayrim tarmoqlar yoki texnologiyalarga investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari berilishi mumkin. Shu bilan birga, zararli mahsulotlar (masalan, alkogol, tamaki) iste'moli uchun soliqlarni oshirish ularning iste'molini va u bilan bog'liq salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarni kamaytirishi mumkin.


4. Inflyatsiya va pul massasini tartibga solish. Soliq stavkalari va soliq tuzilmalarini o'zgartirish orqali davlat iste'mol va investitsiyalar darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa inflyatsiya darajasi va pul massasini boshqarishga ta'sir qilishi mumkin.

5. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish. Soliqlar iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradigan infratuzilma loyihalarini va boshqa tadbirlarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, soliq siyosati investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Jismoniy shaxslar uchun soliqqa tortish tizimi iqtisodiyotni tartibga solish orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan turli maqsadlarga erishish imkonini beruvchi davlat siyosatining muhim vositasi hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan soliqlar undirilishi nafaqat davlatning faoliyat yuritishi uchun zarur resurslarni ta'minlaydi, balki jamiyatda adolatni, ijtimoiy hamjihatlikni, iqtisodiy muvozanatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliqlarning vazifa va funksiyalari o'ziga xos xususiyatlarga ega (2-rasm). Ushbu soliqlarning asosiy funksiyalarini kengroq tahlil qiladigan bo'lsak:



2-rasm. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliqlarning asosiy funksiyalari

Davlat ehtiyojlarini moliyalashtirish funksiyasi:

- Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq davlat dasturlari va xizmatlarini, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot va infratuzilmani moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu soliqlar orqali davlat o'z asosiy faoliyatini va aholining turmush sifatiga ta'sir qiluvchi xizmatlarni moliyalashtirish uchun zarur mablag'larni oladi.

Bu soliqlar odatda davlat byudjeti daromadlarining salmoqli qismini tashkil etadi va davlat apparatining barqaror faoliyatini ta'minlashda asosiy o'rin tutadi.

Daromad taqsimoti va ijtimoiy adolat funksiyasi:

- Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq ijtimoiy adolatni ta'minlash va daromadlar tengsizligini kamaytirish uchun qo'llaniladi. Bu soliqlarning to'g'ri taqsimlanishi orqali aholi o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni yumshatish mumkin.

Iqtisodiy faollikni rag'batlantirish funksiyasi:

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i iqtisodiy faollik va investitsiyalarni rag'batlantirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Soliq tizimining samarali tashkil etilishi tadbirkorlik va innovatsiyalarning rivojlanishiga ko'maklashadi.



- Soliq imtiyozlari yoki pasaytirilgan soliq stavkalari tadbirkorlik, ta'lim va innovatsiyalarga sarmoya kiritishni rag'batlantirishi, ish o'rinlarining yaratilishi va iqtisodiy rivojlanishga yordam berishi mumkin.

Daromad ma'lumotlarini to'plash va nazorat qilish funksiyasi:

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlatga aholi daromadlari to'g'risida kerakli ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu ma'lumotlar soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish va soliq tizimida adolatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

- Soliq tizimida adolatni ta'minlash va soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlariga qarshi samarali kurashishga yordam beradi.

Moliyaviy barqarorlik va rejalashtirish funksiyasi:

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu soliqlar orqali davlat barqaror va prognoz qilinadigan daromad manbasini yaratadi, bu esa davlat xarajatlarini rejalashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

- Hukumatga o'z xarajatlarini rejalashtirish, byudjetini hisoblash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur vositalarni taqdim etadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining bu xususiyatlari uning nafaqat davlat ehtiyojlarini moliyalashtirish, balki keng ko'lamli iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishda muhimligini ko'rsatadi. Bu soliqlar orqali davlat aholining turmush sifatini yaxshilash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy adolatni amalga oshirish uchun zarur mablag'larni oladi.

Soliqqa tortishning samarali usullari va shakllari, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda, soliqqa tortishning asosiy tamoyillari - odillik, shaffoflik, samaradorlik va barqarorlik, muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu paragrafda, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning turli usullari, shakllari va tamoyillari haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

Turli mamlakatlarda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning turli usullari qullaniladi (3-rasm).



3-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish usullari¹

1. Progressiv soliq shkalasi. Bu usul daromadning oshishi bilan soliq stavkasining oshishini nazarda tutadi. Daromad qanchalik yuqori bo'lsa, soliq ulushi shunchalik yuqori bo'ladi. Progressiv shkala bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin va har bir bosqichda turli soliq stavkalari qo'llaniladi.

2. Proporsional (chiziqli) soliqqa tortish usuli. Bunday holda, soliq stavkasi daromad darajasidan qat'i nazar, doimiy bo'lib qoladi. Misol uchun, proporsional soliq stavkasi 15% bo'lsa, unda siz topgan har bir dollar 15% soliqqa tortiladi.

3. Regressiv soliq shkalasi. Bunday holda, soliq stavkasi daromadning oshishi bilan kamayadi. Bu keng tarqalgan usul emas, chunki u odatda ijtimoiy adolat tamoyillariga zid keladi, chunki u kam daromadli odamlarni boyroq odamlarga qaraganda o'z daromadlarining yuqori foizini soliqqa to'lashiga olib keladi.

4. Xarajatlardan olinadigan daromad solig'i (progressiv iste'mol solig'i). Bunda soliq daromaddan emas, balki iste'molga sarflangan summadan undiriladi. Bu, odatda, yuqori baholi tovarlar va xizmatlarga nisbatan qo'llaniladigan savdo soliqlari yoki hashamatli soliqlarni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Kombinatsiyalashgan usullar. Ko'pgina mamlakatlar shaxsiy daromadlarni soliqqa tortishning turli usullari kombinatsiyasidan foydalanadilar. Masalan, ular asosiy daromadlar bo'yicha progressiv soliqqa tortish va daromad yoki xarajatlarning alohida turlari bo'yicha qo'shimcha soliqlardan foydalanishlari mumkin.

Har bir soliqqa tortish usulining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, u yoki bu usulni tanlash muayyan davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatiga bog'liq (4-rasm).

¹ Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.




4-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning bevosita usullari²

Soliqqa tortishning bevosita usullari ikki turga bo'linadi: progressiv va proporsional. Progressiv soliqqa tortish usulida soliq stavkalari daromadning oshishi bilan birgalikda ko'tariladi. Bu esa ko'proq daromad olgan shaxslarning kam daromad olgan shaxslarga nisbatan ko'proq soliq to'lashini anglatadi. Progressiv soliqqa tortishda daromad darajasi inobatga olinadi, ya'ni kam ta'minlangan qatlamlar kamroq soliq to'laydi, yuqori daromadli qatlamlar esa ko'proq soliq to'laydi. Bu usul daromad darajasini inobatga olgan holda adolatli soliq yukini taqsimlashga yordam beradi va daromadlar o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytiradi.

Proporsional soliqqa tortishda esa barcha soliq to'lovchilar o'z daromadlaridan bir xil foizda soliq to'laydilar. Bu soliq hisobini va yig'imini osonlashtiradi, lekin daromad darajasini inobatga olmagan sababli adolatli bo'lmasligi mumkin. Proporsional tizimda qat'iy soliq stavkalari qo'llaniladi, ya'ni ular daromad miqdoriga qarab o'zgarmaydi. Bu tizimning shaffofligi va soddaligi uning asosiy afzalliklari bo'lsa-da, notenglikni oshirish xavfi mavjud.

Progressiv soliqqa tortish tizimi adolatli va jamiyatdagi notenglikni kamaytirishga qaratilgan. Bu usul daromad darajasini inobatga olish bilan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga yengillik beradi. Lekin bu tizimning boshqaruvi qiyin bo'lishi mumkin va yuqori stavkalar soliqdan qochishni rag'batlantirishi ehtimoli bor (5-rasm).

Xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning bilvosita usullari asosan quyidagilardan iborat:



5-rasm. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning bilvosita usullari³

Soliqqa tortishning bilvosita usullari turli soliq imtiyozlari va boshqa choralar orqali amalga oshiriladi. Ularning asosiy maqsadi daromadlar va boshqa moliyaviy foydalanishlarni samarali tarzda taqsimlashdir.

Soliq imtiyozlari turli xilda bo'lishi mumkin va ularning har biri turli maqsadlarga xizmat qiladi. Belgilangan soliq imtiyozlari muayyan summa yoki foizda belgilanadi va ular soliq to'lovchilarning soliq yukini yengillatishga qaratilgan. Bu turdagi imtiyozlar ko'pincha ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan xarajatlarni hisobga oladi. Maqsadli imtiyozlar muayyan maqsadga yo'naltirilgan xarajatlarni kamaytirish uchun belgilanadi. Masalan, ta'lim yoki sog'liqni saqlash xarajatlari uchun berilgan imtiyozlar. Maxsus imtiyozlar turli xil soliq yukini yengillatish uchun qo'llaniladi va ular odatda maxsus sharoitlarda, masalan, fuqarolarning muayyan qatlamlariga (masalan, nogironlar, nafaqaxo'rlar) mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

² Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.

³ Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.



Boshqa usullar soliqqa tortishning turli mexanizmlarini o'z ichiga oladi, bu esa turli daromad manbalaridan samarali soliq yig'ishga yordam beradi. Kapital daromadlariga soliqlar ko'proq moliyaviy aktivlar va investitsiyalardan olingan foydaga soliq to'lashni o'z ichiga oladi. Bu turdagi soliqlar davlat byudjetiga qo'shimcha daromad olishga yordam beradi va moliyaviy bozorlardan olingan daromadlarning adolatli taqsimlashini ta'minlaydi.

Soliqqa tortishning bilvosita usullari soliq yukini adolatli va samarali taqsimlashga yordam beradi. Belgilangan, maqsadli va maxsus imtiyozlar orqali soliq to'lovchilarning ayrim xarajatlarini hisobga olish va yengillatish mumkin. Boshqa usullar, xususan, kapital daromadlariga soliqlar orqali davlat byudjetiga qo'shimcha daromad olib kelish mumkin. Har bir usulning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olish zarur, chunki ularning har biri turli ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga xizmat qiladi.

Soliqqa tortish shakllari va usullarining tahlili shundan dalolat beradiki, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq ko'plab mamlakatlarda muhim o'rin tutadi. Progressiv soliq stavkalari va soliq itiyozlari jamiyatda adolatlilikni ta'minlashga yordam beradi. Biroq, soliqlarni hisoblashning murakkabligi va deklaratsiyalarni to'ldirish zarurati ba'zida soliq to'lovchilar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shaffof va sodda soliq tizimlari esa soliqqa tortish jarayonini samarali va adolatli qilib tashkil etishga yordam beradi.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlarning asosiy tamoyillari har bir mamlakatda farq qilishi mumkin va ular asosan quyidagilardan iboratdir:

1. Barcha turdagi daromadlarni soliqqa tortish tamoyili. Bu jismoniy shaxsning turli manbalardan olgan barcha daromadlari (masalan, ish haqi, depozitlar bo'yicha foizlar, investitsiyalardan olingan daromadlar) soliqqa tortilishini anglatadi. Jismoniy shaxslarning barcha daromadlari, agar qonunda daromadlarning ayrim toifalari uchun soliqdan ozod qilish nazarda tutilmagan bo'lsa, istisnosiz soliqqa tortilishi kerak.

2. Progressiv shkala bo'yicha soliqqa tortish tamoyili. Bu tamoyil daromadning oshishi bilan soliq stavkasining oshishini nazarda tutadi. Ya'ni, daromadi yuqori bo'lgan odamlar yuqori soliq stavkalarini to'lashlari kerak.

3. Chegirmalar va imtiyozlardan keyin soliqqa tortish tamoyili. Ushbu tamoyil asosida soliq tizimi jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun soliq yukini kamaytirish uchun muayyan xarajatlar (masalan, ta'lim yoki tibbiy xarajatlar) uchun soliq imtiyozlari kabi turli xil istisno va imtiyozlarni taqdim etishi mumkin.

4. Soliqlarning qaytariluvchanligi tamoyili. Bu tamoyil daromad olgan shaxslar ushbu daromaddan daromad olingan joydan qat'i nazar, o'zlari yashayotgan yoki fuqaroligi bo'lgan mamlakatda soliq to'lashi kerakligini nazarda tutadi.

5. Adolatli soliqqa tortish tamoyili. Mazkur tamoyil soliq tizimi barcha fuqarolar uchun adolatli va adolatli bo'lishi, shuningdek, ularning imkoniyatlari va sharoitlarini hisobga olishini nazarda tutadi.

6. Soliq tizimining shaffofligi va ravshanligi tamoyili. Bunda soliq tizimi soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini ongli va to'g'ri bajarishlari uchun shaffof va tushunarli bo'lishi kerak.

7. Samaradorlik va iqtisodiy rag'batlantirish tamoyili. Ushbu tamoyil asosida soliq tizimi iqtisodiy o'sishni va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirishi, sarmoya, mehnat faolligi va tadbirkorlikni rag'batlantirishi kerak.

Mazkur tamoyillar odatda ko'pchilik mamlakatlarda daromadlarni soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, biroq har bir mamlakatda yuritilayotgan soliq siyosati farq qilishi mumkin. Shuningdek, ushbu tamoyillar turli mamlakatlarning o'ziga xos soliq tizimi va qonunchiligiga qarab turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar davlat daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Bu soliqlar orqali davlat o'z xarajatlarini qoplash, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va infratuzilmani rivojlantirish uchun zarur mablag'larni yig'adi.

2. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlar turli mamlakatlarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Xususan, XX asrda ko'plab mamlakatlar yuqori daromadlarga nisbatan yuqori stavkalar qo'llanilgan holda progressiv soliqqa tortishga o'tdilar. Bu usul ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan adolatli hisoblanadi va hukumat maqsadlari uchun ko'proq mablag' to'plash imkonini beradi.

3. Vaqt o'tishi bilan soliq tizimiga jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini kamaytirish imkonini beruvchi turli imtiyoz va chegirmalar joriy etildi. Bu imtiyozlar bolalar uchun ajratmalar, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa xarajatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Ko'pgina mamlakatlarda daromad solig'i kapital daromadini (masalan, foizlar, dividendlar, kapital o'sishi) va mehnat daromadlarini (ish haqi, xizmatlar uchun to'lovlar) o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi daromadlar turli stavkalarga ega bo'lishi yoki turli soliq imtiyozlaridan foydalanishi mumkin.

5. Texnologiya va globallashuv ta'siri. Internet orqali olingan daromadlarni soliqqa tortish hamda chet elda ishlaydigan yoki investitsiya qiluvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini xalqaro soliqqa tortish kabi



muammolar yangi qiyinchiliklar yaratmoqda. Ko'plab mamlakatlar soliq tizimini doimiy ravishda isloh qilib, soliq yig'ishni soddalashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga intiladi.

6. 1992-1996 yillarda O'zbekistonda iqtisodiy tizim va soliq tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solish bozor iqtisodiyotiga moslashtirildi. 2017-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tizimida aholiga soliq yukini kamaytirish va iste'molni rag'batlantirish maqsadida bir qator o'zgarishlar kiritildi.

7. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkalarini pasaytirish O'zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikka qiziqishni oshirishga yordam beradi. Bu tadbirkorlik faolligini kuchaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni rivojlantirishga olib keladi.

8. Soliq stavkalarini pasaytirish rasmiy tadbirkorlikni norasmiy va yashirin faoliyatga nisbatan ko'proq jozibador qilishi mumkin. Bu yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish va byudjetga soliq tushumlarini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Feldstein M. The Effects of Marginal Tax Rates on Taxable Income: A Panel Study of the 1986 Tax Reform Act. *Journal of Political Economy*, Vol. 103, No. 3.
2. Saez E., Slemrod J., Giertz S. The Elasticity of Taxable Income with Respect to Marginal Tax Rates: A Critical Review. *Journal of Economic Literature*, 50 (1), 3–50.
3. Piketty T., Saez E., Zucman G. Distributional National Accounts: Methods and Estimates for the United States. *Quarterly Journal of Economics*.
4. Bozorov A. O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. "Moliya va iqtisodiyot" jurnali, №3. (2021).
5. Qiyasov Sh. Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali jismoniy shaxslar daromadlarini to'g'ri hisobga olish masalalari. "Soliq ilmi" jurnali, №4. . (2020).
6. Imamova M. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiyalash tizimi: muammolar va yechimlar. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, №1. (2022).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
